



IJTIMOIIY ONGDA IJTIMOIIY TARMOQ VA AXBOROT OQIMI

SH.SH.Usmonova

D.S.Igamberdiyev

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchilari

Erkinjonona Nigina Elyorjon qizi

Valiveya Gulsanam Baxromjon qizi

Fizika yo'nalishi 101-guruh talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining, xususan, ijtimoiy tarmoqlarning ijtimoiy ongga ta'siri haqida fikr yuritiladi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali axborotning tez tarqalishi ommaviy ongni shakllantirishdagi roli, shuningdek, ularning yoshlar va jamoatchilik tafakkuriga ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada, axborot oqimi orqali shakllanayotgan stereotiplar, axborot manipulyatsiyasi va uning ijtimoiy ongdagi aks sadosi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: kommunikatsiya, stereotiplar, manipulyatsiya, axborot oqimi, ijtimoiy ong, ijtimoiy ta'sir, ijtimoiy tarmoq, axborot xavfsizligi.

Abstract: This article discusses the impact of modern information and communication technologies, in particular social networks, on social consciousness. The



role of the rapid spread of information through social networks in the formation of public consciousness is analyzed, as well as their impact on the thinking of young people and the public. The article discusses the stereotypes formed through the flow of information, information manipulation and its impact on social consciousness.

Keywords: communication, stereotypes, manipulation, information flow, social consciousness, social influence, social network, information security.

Аннотация: В статье рассматривается влияние современных информационно-коммуникационных технологий, в частности социальных сетей, на общественное сознание. Анализируется роль быстрого распространения информации через социальные сети в формировании общественного сознания, а также их влияние на мышление молодежи и общественности. В статье рассматриваются стереотипы, сформированные посредством потока информации, информационного манипулирования и его влияния на общественное сознание.

Ключевые слова: коммуникация, стереотипы, манипуляция, информационный поток, общественное сознание, социальное влияние, социальная сеть, информационная безопасность.

Jamiyat murakkab va serqirradir. Uning xilma-xil soxalarda sodir bo'layotgan o'zgarishlar kishilar ongida o'z aksini topadi. Ana shu jarayonni ifodalash uchun odatda ijtimoiy va individual ong tushunchalari ishlatiladi. Xo'sh bu tushunchalarning mohiyati qanday ularning o'zaro aloqadorligi va tafovati xususiyatlarga ega va qanday qonuniyatlar asosida rivojlanadi degan asosli savollar paydo bo'ladi. Bu savollarga javob berish uchun avvalo ijtimoiy ong nima degan savolga to'xtalib o'tishimiz zarur.

Ijtimoiy ong tabiiy voqelikni in'kosi jamiyatning muayyan davriga tegishli bo'lgan his-tuyg'ular, kayfiyatlar, qarashlar, g'oyalar, nazariyalar majmuasidir. Ijtimoiy ong



jamiyatni o'z-o'zini ijtimoiy borligini va uni qurshab turgan voqelikni anglashidir. Ijtimoiy ong ijtimoiy borliq bilan chambarchas bog'liqdir. Jamiyat ijtimoiy ongsiz shakllana va rivojlana olmaydi. Ijtimoiy o'zgarishlar bilan bir qatorda ijtimoiy ong ham o'zgarib rivojlanib boradi. Ijtimoiy ong ham o'z taraqqiyotida nisbiy mustaqillik xarakteriga va ijtimoiy voqelikka faol aks ta'sir eta olish xususiyatiga ham egadir.

Ijtimoiy ongning nisbiy mustaqilligi qarashlar, go'yalar, nazariyalarining rivojlanishidagi vorislikda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy ong inson moddiy xayot sharoitlari va tabiatni individual ongga nisbatan bir muncha chuqur, mukammal va har tomonlama boyib, to'ldirib turadi. Ijtimoiy ong voqelikni aks ettirganligi uchun muayyan qonuniyatlarga boy sanaladi va ular asosida rivojlanadi. [1]

Ijtimoiy ongning nisbiy mustaqilligi yana shunda namoyon bo'ladiki, ijtimoiy ong ijtimoiy borliqdan orqada qolishi ham mumkin. Unga sabab ulardagi o'zgarishlar bir vaqtda yuz bermasligidadir. Shuningdek, ijtimoiy ongning dinaxlok singari shakllariga muayyanlik yashovchanlik xosdir. Ulardagi mazmun g'oya va qarashlar an'anaviy aylanib ular uzoq vaqt saqlanib qoladi. Ijtimoiy ongning mohiyati uni individual ong bilan solishtirganda yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz va dunyo miqyosida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, voqea-hodisalar, yangiliklar to'g'risidagi ma'lumotlar barcha ijtimoiy tarmoqlarda ask etmoqda. Bu yangiliklardan xabardor bo'lishda esa internet tizimi, mobil telefonlar va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ancha qulay hisoblanadi.

"Internet tarmoq" tushunchasi 1954-yilda paydo bo'lgani va albatta, internetga hech qanday aloqasi yo'qligini hamma ham bilmaydi va ular bu hodisani o'tgan asrning 30-yillarida o'rganishni boshladilar.

Internet tarmog'ida insonlar o'rtasidagi muloqotning avj olishi, rivojlanib ketishini olimlar ijtimoiy tarmoqlarning tezkor faoliyati bilan bog'lashadi. Kun sayin jadal rivojlanib borayotgan axborot asrida zamonaviy texnika vositalaridan foydalanmaslikning yoki ularga



murojaat etmaslikning iloji yo'q. Chunki, inson dunyoqarashining shakllanishida, ma'naviy olamining yanada kengayishida, ayniqsa kompyuter texnologiyasi asosiy vosita rolini o'ylaydi.

Hozirgi kun nuqtai nazari bilan qaraydigan bo'lsak, allaqachon global tarmoqqa aylanib ulgurgan internet o'zining tezkorligi chegara bilmasligi bilan ommaviy axborot vositalari orasida eng muhim sohaga aylanib ulgurdi.

Qisqa qilib qaytganda, dunyoning istalgan nuqtasida odamlar bilan aloqa o'rnatishga imkon berdi. Bundan tashqari, biz kutubxonalarga borishimiz, u yerda bo'lmasligi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni qidirishimiz yoki kimdir undan foydalanishini kutishimiz shart emas, shunchaki biz internet orqali istalgan ma'lumotni topishimiz mumkin.

Bugungi kunga kelib ijtimoiy tarmoqlar bilan bir qatorda ulardan foydalanuvchilar soni ham ko'paydi. Bugungi kunda saytlarga kiruvchi, internetdan foydalanuvchilarning uchdan ikki qismi mazkur tarmoqlardan foydalanadi. Albatta, bu tarmoqlarning foydali va zararli tomonlari bor.

Foydalari:

Ijtimoiy tarmoqlar ma'lumot olishning eng oson va qulay manbaidir. U jurnalistlarga ko'p yordam beradi.

Talabalarga, tadqiqotchilarga va boshqa qiziquvchilarga ham ko'p yordami tegyapti. O'zlariga kerakli materialni qaysidir davlatning qo'lyozmalar fondidan yoki muzeyidan so'rash, rasmini ko'chirib olish, soha mutaxassisi bilan gaplashib, ilmiy xulosalar berishda qulaylik tug'diryapti.

Turli kasb vakillari o'zlariga tegishli mavzularda tarmoq foydalanuvchilaridan maslahat so'raydilar va kerakli maslahat va g'oyalar oladilar. [2]

Zararlari:

Axloqsizlik, fahsh, buzuvchilikni targ'ib qiluvchi saytlar va ularning sahifalari keng yoyilgani.



Mish-mish, yolg'on, uydirmalar, buzg'unchi g'oyalar, soxtalashtirish, tarafkashlikning yoyilgani. Ayrim foydalanuvchilar o'z sahifalariga soxta rasmlar qo'yib olishi, ma'lumotlarni soxtalashtirishi, asosi yo'q, yolg'on xabarlarni tarqatishi, bir guruhdagi kishilar o'zlariga teskari fikr bildirgan tarafga (aslida barchalari musulmonlar) nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishlari, faqat o'zlarining fikrlarini haq deb, boshqalarning fikrini mensimasliklari bunga misol bo'ladi. [3]

Tarmoqlarga qattiq berilish oqibatida namoz, Allohni zikr qilish, silai rahm, qo'shniga yaxshilik qilish, farzand tarbiyasi, ayoliga go'zal munosabatda bo'lish, ota-onaga yaxshilik qilish, ustozlar, bemorlar holidan xabar olish, janozada qatnashish kabi muhim ibodat va vazifalar qolib ketadi.

Axborot oqimi bu logistik tizim ichida, logistik tizim va tashqi muhit orasida xarakat lanuvchi, logistik operatsiyalarning boshqaruvi va nazorati uchun zarur bo'lgan xabarlar va ma'lumotlar yig'indisidir.

Axborot oqimi qog'oz va electron hujjatlar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Axborot oqimi joriy oqimdan oldin, u bilan birga, yoki undan keyin xarakatlanishi m umki Bunda axborot oqimi moddiy oqim bilan bir tomonga yoki qarama qarshi tomonga yo'naltirilgan bo'lishi ham mumkin.

Axborot tizimlarining shakllanishi oqimlarining ayrim ko'rsatkichlari kesimidagi tekshirishlarsiz amalga oshmaydi. Misol uchun, biror korxonani hisoblash texnika bilan ta'minlash masalasini, ushbu ish joyi orqali o'tadigan axborot hajmi va qayta ishlashining zaruriy tezligini bilmasdan hal qilib bo'lmaydi. [4]

Axborotning inson ongiga ta'siri muammolari.YUNESKO hujjatlarida mediata'lim "pedagogik nazariya va amaliyotda o'ziga xos va avtonom sohaning bir qismi sifatida qaraladigan zamonaviy ommaviy axborot vositalarini o'zlashtirish nazariyasi va amaliy ko'nikmalarini o'rgatish; Matematika, fizika yoki geografiya kabi boshqa ta'lim sohalarini o'qitishda yordam sifatida ommaviy axborot vositalari va aloqa vositalaridan



foydalanishdan farqlanishi kerak". Rivojlanayotgan jamiyat ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanish bilan barcha axborot jarayonlarini faollashtirishni talab qiladi. Ommaviy axborot vositalarining o'sib borayotgan imkoniyatlari tufayli axborot iste'molchiga yuqori tezlikda yetib boradi, ko'p marta takrorlanadi va omma ongiga faol kiritiladi. Axborot asrida ijtimoiy qadriyatlar, yo'nalish va qarashlarni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining roli sezilarli darajada oshib bormoqda. Ommaviy axborot vositalari odamlar hayotiga chuqurroq kirib, ommaviy ongga dinamik va maqsadli ta'sir ko'rsata boshladi. Bu ommani tashkil etuvchi shaxslar ommaviy axborot vositalari tomonidan joylashtirilgan "axborot fantomlari" dunyosida yashay boshlaganiga olib keldi. Odamlarning katta qismi televizorni, xuddi shu kanallar, dasturlarni va dastur qo'llanmasi qoidalari bilan tasdiqlangan tartibda tomosha qiladi. [5]

Xulosa qilib shuni aytishimiz joizki, bugungi raqamli davrda ijtimoiy tarmoqlar va axborot oqimi ijtimoiy ong shakllanishida muhim o'rin egallamoqda. Bu vositalar jamiyatdagi qarashlar, qadriyatlar va munosabatlarning tez o'zgarishiga sabab bo'layotgan bo'lsada ular bilan birga soxta axborot, manipulyatsiya va ijtimoiy bosim kabi salbiy holatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Shu bois, axborot madaniyatini rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni shakllantirish va axborot xavfsizligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Har bir fuqaroning ongli axborot iste'molchisi bo'lishi – sog'lom va barqaror jamiyat kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kadirov M.M. Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari. Darslik, 2 qism. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2019. - 306 b.



2. Dadabayeva R.A., Nsridnova Sh.T., Shoaxmedova N.X., Ibragimova L.T., Ermatov Sh.T. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlari. O`quv qo`llanma.-T.:Sano-standart,2017,-552 b.
3. Kenjabayev A.T, Ikromov M.M, Allanazarov A.Sh. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari. O`quv qo`llanma,-T.:O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2017-408 b
4. Ergashevich, E. A. (2023). Internet Tarmog 'i Xizmat Turlarining Zamonaviy Tahlili. Journal of Innovation in Education and Social Research, 1(3), 174-176.
5. Ergashevich, E. A. (2017). Implementation of Modern Pedagogical Technologies in the Process of Training Sessions. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 6(5), 37-47.